



O'ZBEKISTON BUYUK MUTASAVVIFLAR YURTI

*Imom Buxoriy nomidagi Toshkent
Islom instituti 403-guruh talabasi
Komilova Malohat*

O'zbekiston buyuk allomalarini yetishtirgan va dunyo tamadduniga bebaho ma'naviy xazina tuhfa etgan zamindir. Bu diyordan islom ilmi va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk muhaddis-u faqihlar, mutasavviflar, ijodkorlar yetishib chiqqan. Chunonchi, mintaqada yuksak tamaddun IX-XI asrlarda yuqori bosqichga yetgan bo'lsa-da, ma'rifiy takomil ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Mintaqaga islom dini kirib kelishi ma'rifiy takomil yuqori bosqichga chiqishiga, yuksak tamaddun shakllanishiga asos bo'ldi. Islom dinining ezgulikka, bunyodkorlikka yo'g'rilgan g'oyalari ilm ahlini g'oyaviy oziqlantirdi, mazmunan ilhomlantirdi.

Mintaqa allomalarini islom ilmlari bo'yicha sermahsul ilmiy ijod qildi. Xususan, Imom Buxoriy, Imom Termiziyy, Imom Moturidiy, Mahmud Zamashshariy, Burhoniddin Marg'iloniyy, Qaffol Shoshiy, Abu Muin Nasafiy, Abul Barakot Nasafiy, Alouddin Buxoriy va boshqa qanchadan-qancha buxoriylar, nasafiylar, samarqandiyarlarni, shuningdek, tasavvuf ilmida, Abduxoliq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Mustamliy Buxoriy, Kalobodiy Buxoriy, Najmuddin Kubro, Hakim Termiziyy, Aziziddin Nasafiy, Ahmad Yassaviy va boshqa ko'plab mutasavviflarni tilga olish mumkin.

IX-X asrlarda kalom ilmi rivojida Abu Mansur Moturidiy ilmiy merosining o'rni va ahamiyati juda yuqoridir. Alloma ta'limotining yuzaga kelishiga o'sha davrdagi turli aqidaviy adashishlar, nizo va ixtiloflar ehtiyoj tug'dirganini allomaning asarlari mohiyati va ularda ilgari surilgan g'oyaviy qarashlardan bilib olish mumkin. Uning "Ta'vilotul Qur'on" ("Qur'on ta'villari") asari Qur'oni karim tafsiri bo'lsa-da, oyatlar turli aqidaviy qarashlarga raddiya sifatida sharhlangan¹. Shu jihatdan, kitobni "aqidaviy tizimlar mustahkam ishlab chiqilgan va o'sha davr diniy oqimlari to'g'risida ma'lumot beruvchi muhim asar", deyish mumkin. Ayniqsa, olimning mashhur "Kitobut tavhid" ("Allohnning yakka-yagonaligi kitobi") asari kalom ilmi bo'yicha muhim manba bo'lib, bugungi kunga qadar yuksak ilmiy-ma'rifiy ahamiyat kasb etib kelmoqda. Abu Mansur Moturidiyning qarashlarini keyingi davr olimlaridan Abu Hafs Nasafiy ham qo'llab-quvvatlagan va uning g'oyalarini davomchisi sifatida "Aqoidun Nasafiy" asari orqali sof aqidaviy masalalarni yoritgan. Bu asarga mashhur alloma Taftazoniy yuqori baho berib: "Abu Hafs Nasafiyning "Aqoidun Nasafiy" asari kalom ilmini o'rganishda eng foydali va qulay manbadir" degan. Bu borada Abu Muin Nasafiy, Abul Barakot Nasafiy, Alouddin Buxoriy va boshqa kalom ilmi olimlarining qarashlarini ham sof e'tiqod targ'ibotchilari sifatida baholash mumkin.

Ma'lumki, Movarounnahrda tasavvuf ilmi bo'yicha o'ziga xos katta maktab yaratilgan. Tasavvuf ta'limotining komillik sari intilishga, halol, pok, kamtar bo'lishga, ezgu ishlar qilishga qaratilgan yuksak g'oyalari, ilm ahlini hamisha qiziqtirib, ilmiy-nazariy asarlar,

¹ Mustafa ibn Abdullo. Kashfuz zunun. – J.I. – Bayrut: Dor ihyaut turosil arabiyy, 2004. – B. 320.

badiiy ijod namunalari yaratishga va tasavvufiy tamoyillar bilan yashashga undagan. Bunday insonlar mutasavvif olim bo'lib, so'fiylikning tartib-qoidalari, ma'naviy kamolot yo'li va amaliy hayotda yashash tartiblarini belgilab beruvchi tariqatlarini yaratgan hamda o'z ilmiy-adabiy asarlari orqali ilohiy ishq, ruhiy poklik, ma'naviy yuksalish g'oyalarini ilgari surgan.

So'fiylar dastlabki paytlarda tasavvufni nuqlu siru asror, tushuntirib bo'lmaydigan holatlar, «iboraga kelmaydigan ishoratlar» deb hisoblagan bo'salar, bora-bora bu holatlar haqida fikr-mulohazalar bayon qilina boshlandi, so'fiyni tarbiyalash vazifasi, pir muridlik qoidalari, odobini yaratish zarurati tug'iddi. Natijada tariqat va shariat orasidagi munosabatlar, so'fiylarning odam va olam mohiyati, aloqa-muomalasi, tawhid - vahdat masalalari munozaraga olib chiqildi. Din arboblari bilan so'fiy shayxlari, ayniqsa, fapsafiylashgan tasavvuf tarafdlari jildiy maf kuraviy tortish uvlargacha bordilar. Tasavvuf butun Islom olamini zabit etib, barcha qadimiy shaharlarda xonaqohlar qurildi, yo'llarda rabotlar, zoviyalar qad ko'tardi. Xonaqoh va rabotlar, aeiz avliyolarning mozorotida shayxlar maskan tutib, ko'plab shogirdlarni tarbiyaga oldilar. Tasavvufning ilk davrida maqomot va tariqat asoslarini ishlab chiqish, so'fiylik yo'riqlarini, vazifalarini belgilash va ilohiy haqiqatlarni el orasiga yoyishda Zunnun Misriy (796-861), Boyazid Bistomiy (vafoti 875), Junayd Bag'dodiy (vafoti 910), Hakim Termiziy (vafoti IX asr oxiri) va Mansur Halloj (858-922)larning xiemati katta bo'lgan. Keyinchalik Abu Said Abul Xayr (967-1049), Abdulloh Ansoriy (1006-1089), Ahmad Yassaviy (vafoti 1166 yil), Yahyo Suhravardiy (1155-1191), Ibn al-Arabiyy (1165-1240), Najmuddin Kubro (1145-1221), Bahouddin Naqshband (1318-1389) kabi shayx ul-mashoyixlar tasavvuf ilmini yangi fikrlar, qarashlar bilan boyitdilar, yangi oqim, silsilalarini vujudga keltirdilar. Tasavvuf haqida bir qancha risola va kitoblar yozildi, tasavvuf g'oyalarini qizg'in targ'ib etuvchi ulkan she'riyat vujudga keldi.

Xojagon tariqatining asoschisi, yirik mutasavvif olim Abduxoliq G'ijduvoniy komillikka, yetuklikka intilish yo'llari va asoslarini 8 qoida (rahsha)da ko'rsatib bergen bo'lsa, ikki asrdan keyin alloma ishlarining davomchisi – Bahouddin Naqshband 3 tasini qo'shib, jami 11 qoida orqali butun dunyoga mashhur naqshbandiya tariqati yuzaga kelishiga sababchi bo'ldi. Abduxoliq G'ijduvoniy komillik borasidagi qarashlarini, umuminsoniy g'oyalarini asosan o'z asar va o'gitlari orqali ilgari surgan.², Alloma o'gitlarida: "Xalq og'irini yengillatish lozim, bu tuyassar bo'limganda halol kasb-hunar egallab, "dil ba yoru dast ba kor" holatida bo'lmoqlik amri muqarrar turur", deydi. Abduxoliq G'ijduvoniy vasiyatlarida ilmli, odobli, taqvoli bo'lish, fiqh, hadis ilmlarini egallah, ulamolarning izidan yurish, mansabga qattiq bog'lanmaslik, halol yeyish, mashhurlikka intilmaslik kabi qator insoniy fazilatlarni ilgari suradi.

Keyingi davr mutasavviflari tasavvuf ta'limotini fan sifatida ilmiy jihatdan o'rgandi va uning chuqur ilmiy-nazariy asoslari, komil inson konsepsiyasini ishlab chiqdi va shu tariqa yirik hajmli asarlar yuzaga keldi.

Xususan, Hakim Termiziy "Xatmul avliyo" ("Valiylar muhri") asari orqali valiylik nazariyasini ilmiy asoslagan bo'lsa, Azizuddin Nasafiy "Kashful haqoiq" ("Haqiqatlarning

² Abduxoliq G'ijduvoniy. Vasiyatnoma. – T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1993. – B.224

ochilishi”), “Zubdatul haqoiq” (“Haqiqatlar qaymog‘i”) va boshqa asarlari orqali komil inson konsepsiyasini, Kalobodiy Buxoriy esa, “Taarruf li mazhab ahlit tasavvuf” (“Tasavvuf ahli yo‘li bilan tanishuv”) mo‘jaz asari va unga Mustamliy Buxoriy “Sharh Taarruf li mazhab ahlit tasavvuf” (“Tasavvuf yo‘li bilan tanishuv” asariga sharh”) sharhi orqali tasavvuf nazariyasi bo‘yicha yaxlit va mukammal ma’lumotlarni asoslab berdi³.

Tasavvuf faniga birinchi bo‘lib ilmiy asos solgan olim sifatida Kalobodiy nomi tilga olinadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, asarlarning ilmiy-ma’rifiy jihatlarini mufassal ko‘rsatish, ma’no-mazmunini kengroq ochish uchun yirik hajmli sharhlar yozilgan. Jumladan, birgina Kalobodiy Buxoriyning “Taarruf li mazhab ahlit tasavvuf” deb nomlangan hajman kichik asariga arab va fors tillarida ko‘plab sharhlar bitilgan . Yuz mingdan ziyod hadis bilgan Kalobodiy Imom Buxoriyning “Jomeus sahih” asariga sharh yozgan.

Tasavvufiy sharhlar orasida ta’limotni ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o‘rgatadigan mufassal asar sifatida Mustamliy Buxoriyning “Sharh Taarruf li mazhab ahlit tasavvuf” asari nihoyatda mashhur bo‘lganini aytish joiz. Mutasavvif olim tasavvufiy istilohlar sharhi orqali olam va inson, Haq va haqiqat haqidagi qarashlarini falsafiy mushohadalar asosida talqin etadi.

Allomalarining ilmiy merosi yuksak ma’rifiy ahamiyatga ega. Ular islom ilmlari haqida nazariy bilimlarni berish barobarida jamiyatning, insonning ma’naviy kamoloti uchun ilg‘or, umumbashariy g‘oyalarni ham targ‘ib etadi.

Xulosa qilib aytganda, bu zamindan yetishib chiqqan buyuk allomalar islom ilmlari rivojiga ulkan hissa qo‘srgan. Necha asr o’tsa hamki, ularning merosi ilmiy-ma’rifiy ahamiyatini yo‘qotmagan holda inson kamoloti va jamiyatning ma’rifiy rivoji uchun muhim va bebaho ma’naviy boylik bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. D.Maxsudov. Movarounnahr hanafiy mazhabi tafsirlarining qiyosiy tahlili (XIII-XV asrlar): Tar. fan. dok.. diss. – T.: O‘zXIA, 2020.
2. Islom manbashunosligi. O‘quv qo’llanma. Tuzuvchilar: Z.Islomov, D.Maxsudov, J.Tohirov. — T.: Qaqnus, 2019.
3. Mutafakkirlar. Burhonuddin Marg‘inoniy (1123-1197) // Shosh.uz.
4. Abduxoliq G‘ijduvoniy. Vasiyatnama. – T.: G.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1993.
5. Azizuddin Nasafiy. Zubdatul haqoiq. Tarjimon N.Komilov. – T.: Kamalak, 1996.
6. K.Rahimov. Movarounnahr tasavvufi tarixi: Ta’limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar). – T.: Akademnashr, 2020.

³ Shayx Kalobodiy. Tasavvuf sarchashmasi. Mas’ul muharrir va so‘zboshi muallifi N.Komilov. – T.: G.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2002. – B.126